



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLALAR HUQUQINI  
HIMOYA QILISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN  
ISLOHOTLAR**

*IIV Surxondaryo akademik litseyi  
Huquqshunoslik fani o'qituvchisi  
Karimov Islom Umidullo o'g'li*

**Anotatsiya:**

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida amalga oshirilgan qonunchilik islohotlari, tashkilotlar faoliyati, bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish choralar hamda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimidagi yutuqlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:**

Bola huquqlari, islohotlar, qonunchilik, Bola ombudsmani, himoya, zo'ravonlik, ekspluatatsiya, ta'lim, sog'liqni saqlash, BMT Konvensiyasi.

**Kirish:** O'zbekiston Respublikasida bolalar huquqini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bola huquqlarini ta'minlash va ularning manfaatlarini himoya qilish maqsadida so'nggi yillarda muhim huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar xalqaro standartlarga mos holda olib borilmoqda.

**Asosiy qism**

1. Huquqiy asoslarning mustahkamlanishi



O‘zbekiston 1994-yilda BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasiga qo‘shilgan. Ushbu konvensiyadan kelib chiqib quyidagi muhim qonuniy hujjatlar qabul qilindi:

“Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2008-yil);

“Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil);

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonun (2023-yil, 2024-yildan kuchga kirdi).

Mazkur qonunlar bolalarning ta’lim, sog‘liq, zo‘ravonlikdan himoya, shaxsiy rivojlanish va oilaviy muhitda yashash huquqlarini mustahkamlaydi.

## 2. Bola huquqlarini himoya qiluvchi institutlar faoliyati

Bola huquqlari bo‘yicha vakil (Bola ombudsmani) – bolalarning huquqlari buzilgan holatlarda aralashuvchi va himoya qiluvchi mustaqil tuzilma.

Mahalliy hokimiyatlar va fuqarolik jamiyatni tashkilotlari\*\* – bolalarni himoya qilishda hamkorlik qilmoqda.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini\*\* – bolalarning farovonligi uchun xizmat qiladi.

## 3. Zo‘ravonlik va ekspluatatsiyaga qarshi kurash

Bolalarga nisbatan har qanday zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, majburiy mehnat holatlarining oldi olinmoqda. Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartishlar bilan bolalarga tajovuz qilganlarga nisbatan jazo kuchaytirildi. Maktablarda psixologik xizmatlar va ijtimoiy himoya tizimi yo‘lga qo‘yildi.

## 4. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar



Har bir bola uchun bepul va sifatli ta'limga, tibbiy xizmatlarga teng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim qamrovi kengaytirilmoqda, ijtimoiy himoya dasturlari amalga oshirilmoqda.

Bolalar huquqlari kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 07.01.2008 yildagi O'RQ 139-sonida ham keltirilgan.

## **20-modda. Bolaning mehnat qilish huquqi kafolatlari**

Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'ining holati va kasbiy tayyorlarligiga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

Ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi.

Bolalarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasbhunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun — ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Davlat o'n sakkiz yoshga to'lgagan ishlovchi shaxslarga ishni ta'limga bilan qo'shib olib borishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralarни ko'rish orqali bolaning mehnat qilish huquqi ta'minlanishini kafolathaydi.

## **21-modda. Bolaning dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi kafolatlari**



Har bir bola o‘zining yoshi, sog‘lig‘i hamda ehtiyojlariga mos keladigan dam olish va bo‘sh vaqtga bo‘lgan huquqqa ega.

Ota-onalik yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z qobiliyatlari hamda imkoniyatlariga muvofiq bolaning har tomonlama kamol topishi va farovonligi uchun zarur turmush sharoitini ta’minlaydi.

Bolalar sog‘lomlashtirish, sport, ijodiy tashkilotlari hamda dam olishni va bo‘sh vaqtni uyushtiruvchi boshqa tashkilotlar qonunchilikka muvofiq davlat organlari tomonidan ta’sis etiladi va qo‘llab-quvvatlanadi.

## **22-modda. Bolaning sog‘lig‘ini saqlash huquqi kafolatlari**

Har bir bola sog‘lig‘ini saqlash huquqiga ega.

Davlat sog‘lom bola tug‘ilishini ta’minlash uchun onaga uning sog‘lig‘ini saqlash sharoitlarini yaratadi.

Davlat bolalarga qonunchilikka muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi.

Bolaning sog‘lig‘ini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yo‘llar bilan ta’minlanadi:

malakali tibbiy xizmat ko‘rsatilishini tashkil qilish;

bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasi;



bolalar va o'smirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash;

talab darajasidagi sifatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishini nazorat qilish;

bolaning fiziologik xususiyatlari va sog'lig'i holatiga javob beradigan ta'lim olish hamda mehnat qilish sharoitlarini yaratish;

kasbga yaroqlilikni aniqlashda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari hisobidan bepul tibbiy maslahat berish;

sanitariya-gigiyena ta'limi berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va rag'batlantirish;

sog'lig'ining holati to'g'risida bola uchun qulay bo'lgan tarzda zarur axborotni taqdim etish.

O'n to'rt yoshdan katta yoshdagи bola ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Bola bilan uning hayotiga, sog'lig'i va normal rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki boshqa eksperimentlar o'tkazish taqiqilanadi.

Davlat maxsus cheklavlarni joriy etish va maxsus profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali bolani alkogolga moyillikdan, chekishdan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalarni iste'mol qilishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarini ko'radi.

### **23-modda. Bolaning bilim olish huquqi kafolatlari**



Har bir bola bilim olish huquqiga ega.

Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim olishini kafolatlaydi.

Xulosa:

O‘zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha keng qamrovli va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qonunchilik bazasining takomillashuvi, mustaqil institutlar faoliyatining kuchayishi, ta’lim va sog‘liqni saqlashdagi yutuqlar – bularning barchasi bolalarning to‘laqonli himoyasini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu boradagi islohotlar O‘zbekistonning xalqaro miqyosda mas’uliyatli va bolajon davlat sifatidagi obro‘sini oshirmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent, 2023.
  2. Axmedov, B. "Jinoyat huquqi asoslari." Toshkent, 2020.
  3. Karimova, D. "Jazo tizimi va uning rivojlanishi." Huquqshunoslik jurnali, 2022.
  4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2019.
  5. Islomov, S. "Jazo va jazolashning ijtimoiy-ma’naviy asoslari."
- Toshkent, 2021.